

66. Yuzning xossalari

Yondosh mavzu:
non va g'alla.

Yuz, kvadrat santimetr,
detsimetr, metr.



1. Bo'lishni bajaring. Hosil bo'lgan iborani o'qing.

- $64 : 8$

R $39 : 13$

Q $350 : 5$

L $81 : 9$

I $28 : 2$

! $120 : 4$

- $45 : 9$

M $48 : 4$

Z $360 : 6$

O' $21 : 3$

A $77 : 7$

G' $100 : 5$



20 11 9 9 11 5

3 14 60 70 8 3 7 60 14 12 14 60 30

2. Rasmga qarab, eslang:

a) bir kvadrat detsimetrda
necha kvadrat santimetr bo'ladi?

b) bir kvadrat metrda necha
kvadrat detsimetr bo'ladi?





3. Bo'sh katakchalarni to'ldiring.

$$5\,600\text{ m}^2 = \square\text{ dm}^2$$

$$203\,000\text{ m}^2 = \square\text{ dm}^2$$

$$81\,000\text{ m}^2 = \square\text{ cm}^2$$

$$40\,000\text{ m}^2 = \square\text{ cm}^2$$

$$654\,000\text{ dm}^2 = \square\text{ cm}^2$$



$$800\text{ dm}^2 = \square\text{ cm}^2$$

$$2\,730\,000\text{ dm}^2 = \square\text{ mm}^2$$

$$120\,000\text{ dm}^2 = \square\text{ mm}^2$$






4. Har bir rasmdan katakli to'rtburchakning yuzini toping. Bo'yalgan joyning yuzini toping. Oq kataklarning yuzini toping. Ikkala qismning yuzlarini bir-biriga qo'shing. Xulosa chiqaring.



To'rtburchakning yuzi uning bo'laklari yuzlarining yig'indisiga tengdir.



5. Bo'yalgan bo'laklarning yuzini toping.



6. Rasmda bug'doy dalasining chizmasi tasvirlangan. Dalaning bir qismidagi bug'doy o'rib olingan. Dalaning qancha qismi o'rilmagan?



66. Yuzning xossalari



7. Piyolada 30 ta don bor – bug'doy va javdar donalari. Istalgan 12 ta donning ichida hech bo'lmaganda bitta javdar donasi, istalgan 20 ta donning ichida esa hech bo'lmaganda bitta bug'doy donasi borligi ma'lum. Piyolada nechta bug'doy, nechta javdar donasi bor?



8. Kompleks masalani yeching.

Har bir band uchun ifoda yozib, qiymatini hisoblang. Olingan ma'lumotlarni keyingi ifodada foydalaning.

a) Bitta bug'doy poyasida 18 ta boshq bor. Har bir boshqda uchtadan bug'doy donasi bor. Bitta poyada nechta bug'doy donasi bor?

b) Bir kvadrat metr yerda 300 poya bug'doy bor. Shu bir kvadrat metr yerdan nechta bug'doy donasi chiqadi?

d) Bug'doy dalasining maydoni 200 kvadrat metr. Bu maydondan nechta bug'doy donasi olish mumkin?

e) 900 ta bug'doy donasining massasi 1 kilogramm chiqadi. Bu maydondan necha kilogramm bug'doy olindi?

f) Oliy nav un ishlab chiqarishda hosil bo'lgan unning massasi donning massasidan ikki baravar kam bo'ladi. Bu daladan olingan bug'doydan necha kilogramm un olish mumkin?



9. Rasmlarga qarab, bo'yalgan joyning yuzini toping.

